

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
“TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI”
KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “AKSONOMETRIK PROEKSIYALAR YASSI
SHAKILLARNING AKSONOMETRIK PROEKSIYALARINI
YASASH METODI”**

Ilmiy rahbar: *t.f.n. A.X.Abdullayev*

Bajardi: “Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi” ta'lim yo'nalishi
4-“T” kurs bitiruvchi talabasi
Raximov Furqat

Navoiy - 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-BOB. CHIZMACHILIK BUYUMINING YARATILISHI
HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.....

1.1. Chizma geometriya buyumining tarixi.....

1.2. Chizma geometriya buyumining O'rta osiyoda rivojlanishi.....

II-BOB. AKSONOMETRIK PROEKSIYALAR YASASH,
SHAKILLARINING AKSONOMETRIK PROEKSIYALARINI
YASASH METODI

2.1. Aksonmetriya haqida umumiy ma'lumot.....

2.2. Aksonometrik proyeksiyalash turlari.....

2.3 Aksonometrik yasashga doir misollar yechish.....

Umumiy xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi oiliy ta'limi oldida turgan asosiy vazifalardan biri "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan talablar asosida, davlat ta'lim standartlari va namunaviy dasturlarga mos zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish va shu asosida talabalarga chuqur nazariy bilimlar birib, ularni yetuk mutaxassis qilib tayyorlashdir. Bu ishlarni amalgam oshirishda ta'lim va tarbiyani uzviy olib boorish zarur. Chunki yetuk ma'naviyatli, yuqori malakaga ega va albatta tarbiyali insonlarga barcha sohalarda yuqori chuqilarni egallashga qodirdirlar.

Prezidentimiz Islom Karimov uzining asarlarida inson ma'naviyati uning ta'limi va tarbiyasi haqida juda kup takidlaganla. Jumladan yuksak ma'naviyat – engilmas kuch nomli asarida shunday takidlaydilar "ta'lini tarbiyadan, tarbiyani esa ta'lindan ajratib bulmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi." Bu haqida fikr yuritganda, men Abdullo Avloniyning "Tarbiya biz ychun yi hayot – yo momot, yo nojot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli suzlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalik muhim dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi deb takidlaydilar. Darhaqiqat bugungi kun pedagoglari har tomonlama yetuk insonlar bulishlari zarur¹.

Texnik bilimlarni mukammal egallashning asosiy vazifalaridan biri grafik savodxonlikni o'stirish, ya'ni chizmalarni o'qish va bajarishni bilishdir. Shu boisdan chizmalar chizishni asosi bo'lgan chizma geometriya buyumini chuqur o'rganish talab etiladi.

Chizma geometriya matematikaning bir tarmog'i bo'lib, uch o'lchamli fazodagi obyektlarning tekisliklardagi grafik modelini qurish asoslarini o'rganadi. Shu boisdan chizmaning fazodagi geometrik shaklining tekisliklardagi grafik modelini deb qarash mumkin.

Buyumning mohiyatini asosan ikki narsa tashkil etadi:

- a) geometrik shaklining biror sirt yoki tekislik ustida tasvirlash usullari.
- b) Jisimlarning hosil qilingan tasvirlari bo'yicha ular orasidagi pozitsion (o'zaro tegishlilik) va metrik munosabatlarni tekshirish.

Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilib ayitish mo'mkinki chizma geometriya buyumi qo'yidagilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

1. O'quvchilarni proektsiyalash prinsiplari va uning turlari bilan tanishtirish.
2. Metrik va pozitsion masalalar echishning umumiy va maxsus usullarini o'rganish.
3. Nazariy va amaliy materiallarni injenerlik prfessyasi bilan bog'lay olish.
4. O'quvchilarda fazoviy tasovvurlarni o'stirish va tafakkurini rivojlantirish.
5. Muommoli vaziyatlar yaratish vositasi bilan o'quvchilarning ixtirochilik tafakkurini rivojlantirish va har bir masalani chuqur tahlil qilib, unga ilmiy yondoshishni o'rgatish shuningdek ijodiy qobiliyatini shakillantirish.

Islab chiqarishning asosiy texnik hujjatlaridan biri chizmalardir. Mashina va mexanizimlarning detallarini yasash hamda ularning yig'ish, shuningdek, bino va inshootlarni qurish uchun ularning chizmalari bo'lishi shart. Chunki chizmalar bo'yicha buyumning shakli va o'lchamlarini, qanday materialdan yasalganligi yoki yasalishi kerakligi, buyim detallarining bir-biriga nisbatan bog'lanishlariga tegishli bo'lgan talablarni va shunga o'xshash boshqa ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Bundan tashqari chizmalardan tayyor buyumlarning to'g'ri ishlashini aniqlash va ularni remont qilish mumkin.

Bitiruv ishining maqsadi –

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda Aksonometrik proeksiya yasash, Aksonometrik proeksiya yasash metodi to'g'risida ma'lumot berishni o'z oldinga maqsad qilib oldim.

Bitiruv ishining vazifalari:

– Yuqori sinf chizmachilik darslarida Aksonometrik proeksiya yasash, Aksonometrik proeksiya yasash metodi o'rgatishda maktab o'quvchilari uchun

yengil usullardan foydalanib bilim berish.

Bitiruv ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami ____ sahibuyumi tashkil etadi.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

– Yuqori sinf o`quvchilarida Aksonometrik proeksiya yasashni yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

Tadqiqot ishimizni yozishda qo`yidagi:

– Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, metodlaridan unumli foydalana oldik.

I-BOB. CHIZMA GEOMETRIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.

Chizma geometriya boshqa geometriyalardan o'zining asosiy usuli, ya'ni tasvirlash usuli bilan farq qiladi. U tasvirlash usullari yordamida o'quvchining fazoviy tasavvurini kengaytiradi, tasvirlarni yasash va oldindan yasalgan tasvirlarni o'qiy bilish hamda amaliyotdagi turli muhandislik masalalarini yechishga yordam beradi. Chizma geometriya qonun-qoidalar bilan nafaqat mavjud narsalarni, balki tasavvur qilinadigan narsalarni ham tasvirlash mumkin.

Fazodagi shakllarning tekislikdagi chizmalari chizma geometriya usullari bilan ma'lum qonun-qoidalar asosida hosil qilinadi. Bu chizmalar orqali buyumning fazoviy shaklini chizish va o'lchamlarini aniqlash mumkin. Chizmalar yordamida geometrik shakllarga tegishli stereometrik masalalar yechiladi. Chizmalarsiz buyum va texnika taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Arxitektor va muhandislar ijodiy fikrlarini faqat chizmalar yordamida to'liq bayon eta oladilar. Chizmalar asosida barcha muhandislik inshootlari quriladi, mashinalar, mashina qismlari, meditsina asboblari va hokazolar ishlab chiqariladi.

Shakllarning bizga ma'lum bo'lgan barcha geometrik xossalarini ularning chizmalaridan olingan ma'lumotlardan ham aniqlasa bo'ladi. Shuning uchun ham buyumlarning chizmalarini ularning geometrik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi tekis geometrik modellar deb atash mumkin. Chizma geometriya buyumi quyidagilarni o'rganadi:

- fazoviy shakllarning tekislikdagi tasvirlari, ya'ni tekis modellari (chizmalari) ni yasash;
- tekis chizmada geometrik masalalarni grafik yo'l bilan yechish;
- shakllarning berilgan tekis chizmalari bo'yicha ularning fazoviy urinishi va vaziyatini tasavvur qilish hamda yaqqol tasvirlarini yasash;
- geometrik shakllarning chizmalarini bajarish va o'qish orqali o'quvchining fazoviy tasavvurini rivojlantirish.

Ma'lumki, geometrik shaklning xossalarini analitik va grafik usullarda fe'kshirish mumkin. Shakllarning grafik modeliga asosan ularning analitik usulda berilishini va aksincha, shakllarning analitik ko'rinishidan ularning chizmalarini yasash usullarini chizma geometriyada ham ko`rish mumkin.

Loyihalanadigan buyumlarni faqatgina grafik usulda tasvirlash hozirgi zamon ishlab chiqarish talablarini qanoatlantirmaydi. Shuning uchun chizmalarni bajarishda grafik usullar bilan birga analitik usullardan ham foydalaniladi.

Keyingi yillarda buyumlarning chizmalarini kompyuter grafikasi vositalari yordamida tayyorlashda avtomatlashtirilgan loyihalash sistemalarining kirib kelishi chizma geometriya buyumining rivojlanishida yangicha mazmun kasb etmoqda.

Ishlab chiqarishning asosiy texnik hujjatlaridan biri chizmalardir. Mashina va mexanizimlarning detallarini yasash hamda ularning yig`ish, shuningdik, bino va inshootlarni qo`rish uchun ularning chizmalari bo`lishi shart. Chunki chizmalar buyicha buyomning sakli va o`lchamlarini, qandayi materialdan yasalganligi yoki yasalisi kerakligi, buyim detallarining bir-biriga nisbatan bog`lanishlariga tegishli bulgan talablarni va shunga o`xshash boshqa malumotlarni aniqlash mumkin. Bundan tashqari chizmalardan tayiyor buyomlarning to`g`ri ishlashini aniqlash va ularni remont qilish mumkin.

Ishlab chiqarishning turiga qarab, unda foydalanadigan chizmalar har xil nom bilan yoritiladi, masalan, turli mashina va mexanizimlarning detallari yasash hamda ularni yig`ish uchun tuzilgan chizmalar *mashinasozlik chizmalari* deb ataladi. Chizmachilik buyumining mashinasozlik chizmalarini chizish usullarini o`rgatadigan qismi *mashinasozlik chizmachiligi* deyiladi. Bino va inshootlarning qurishda ishlatiladigan chizmalar *qurilish chizmalari* deb ataladi. Mashinasozlik va qurilish chizmalari birgalikda *texnik chizmalar* deb yoritiladi.

1.1. Chizma geometriya fanining tarixi

Chizma geometriya boshqa fanlar singari inson mehnati faoliyati natijasida vujudga kelgan. Qadimgi inshootlar qoldiqlaridan ma'lum bo'lishicha milloddan avval ham tasvirlar asosida bajarilgan chizmalardan foydalanilgan. Sanoat va texnika tarmoqlarining rinojlanishi bilan tasvirlar yasash usullari ham takomillashib borgan.

Uyg'onish davrida arxitektura va tasviriy san'atning jadal rivojlanishi natijasida G'arbiy Evropada geometrik asosda tasvirlash usullari haqidagi ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. Bu sohadagi nazariyotchi olimlardan biri italyan olimi Leon Alberti (1404-1472) bo'lib, u o'zining «Rassomchilik haqida» va «Me'morchilik haqida» nomli asarlarida perspektivaning kinematik asoslarini ishlab chiqqan.

Grafik yasash usullarning kengi rivoji italyan rassomi, olimi va muxandisi Leonardo Da Vinchi (1452-1519) nomi bilan bog'liq. U o'zining amaliy faoliyatida perspektiv tasvirlar, shu jumladan, «kuzatish» perspektivasi qonunlarini qo'llash doirasini kengaytirgan.

Italyan olimi Gvido Ubalidning (1545-1607) “Prespektiva bo'yicha haqiqiy o'lchamlarni aniqlashga asos solgan” buli prespektiva faninig asoschilaridabiridir.

Fransuz matematigi Jirar Dezarg (1593-1662) “Narsalarni persepektivada tasvirlashning umumiy usuli” nomli asarida persektiv yasashlardan koordinatlar usulini qo'llash bilan chizma geometriya fanigaiga katta hissa qo'shdi.

Nemis geometrigi Lambert (1723-1777) elementlar geometriya masalalarini perspektiva yasashlar asosida grafik usulida yechishni tavsiya qildi.

Shunday qilib, XVIII asr oxirlariga kelib proeksiyalash usullari bo'yicha yetarli tajriba to'plandi. Ammo bu usullar tarqoq bo'lib, yaxlit nazariyaga birlashtirilmagan edi. Fransuz geometrigi Gaspar Monj (1746-1818) o'zining

“Geometriya descriptiva” (“Chizma geometriya”) asarida tasvirlash usullari sohasidagi bilimlarini umumlashtirdi va sistemaga soldi. U bu bilan chizma geometriyaga fan sifatida asos soldi. Gaspar Monjning asosiy islaridan biri uzaro perpendikulyar bulgan uch tekislikni Yuqi buyicha kesib qayta bir tekislikga joylashtirdi va uni epyura deb nomladi. Monjning bu usuli chizma geometriya fanida katta yutuqlardan biri bulib hisoblanadi. Chunki uch tekislikda joylashgan har qanday geometrik shakillarni chizmalarini bir tekislikga joylastirilganda ushbu geometrik shakillarni tasovur qilish va uning chizmasini bajarish osonlashadi.

Chizmachilik fanlar o’rta osiyoda jumladan respublikamizda ham juda qadimdan rivojlanib kelgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o’zining “Aqllar me’yori” asarida oz kuch sarf qilib, og’ir yuklarni yuqoriga ko’tarish, qattiq jismlarni bo’laklash, jismlarni tekislash va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan mexanik asboblarni besh xil ekanligini yozadi. Bular o’q, richag, chig’ir(blok), vint va pona hisoblanadi. Olimning ta’riflagan mexanik asboblardan ba’zilari 6-rasmda tasvirlangan.

Mirzo Ulug’bek(1394-1449) yulduzlar xaritasini juda aniqlik bilan chizgan mashhur astronom olim ekanligi butun dunyoga ma’lum. Buyuk musavvir Kamiliddin Behzod (1455-1535) miniaturalaridan birida me’mor qo’lida qurilish plani bilan tasvirlangan. Rassom o’z asarlarida qo’llagan “perspektiva” qiyshiq burchakli aksonometriya hisoblanadi. O’rta Osiyo olimlari o’z asarlarini chizishda chizmalar chizish asboblari: jazvar (chizg’ich), juptak (reysfeder), mastura (lekalo), pargar yoki suvu (sirkul)dan foydalanganlar.

Chizmalarga handasa (geometriya), tarh (plan), tarz (fasad), reja jadvali (proyeksiya yoki chizma) degan nomlar berilgan. Demak, O’rta

Osiyoda chizmachilik o’ziga xos handasa fani bilan birga rivojlangan. Qadimgi chizmalarning juda oz qismigina bizgacha saqlanib qolgan. Buning

asosiy sababi qurilgan saroy, istehkom, masjid va madrasalar aynan qayta qurilmasligi uchun chizmalar yoqib tashlangan. Shunday bo'lsada, ustunning chizmasi (Usta Shirin Murod chizmasi) saqlanib qolgan. Bu chizmada ustun fasadda tasvirlangan bo'lib, uning shaklini ko'rsatish uchun chiqarilgan kesim ham qo'shib berilgan.

Fan va texnika rivojlanishi bilan chizmalar ham takomillashib bordi. Chizmalar o'z tarixiga ega bo'lishi bilan birga, xalqlar madaniyatining taraqqiy etishiga oid bo'lgan tarixni ham saqlab qoladi. Rasmlar, haykallar va chizmalarga qarab, qadimgi xalqlar to'g'risida ko'p ma'lumotlar olish, shuningdek, katta ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklarni qayta tiklash mumkin bo'ladi.

Hozirgikunda barcha sohalarda bo'lgani kabi chizmachilik fanlari ham kompyuterlashb bormoqda. Harqanday detal, buyum va inshootlarni chizmalarini bir zumda kompyuterning AvtoKAD pragrammasi asosida bajarish mumkin bulib, ayniqsa bularni chzish jarayonida o'zgartirish yuki qo'shimchalar kiritish juda qulayi.

1.2. Chizma geometriya faning o`rta osiyoda rivojlanishi.

O`rta Osiyoda chizma geometriyaga oid ilk ma`lumotlar IX-XI asarlarda yashab o`tgan qomusiy olimlar Muhammad al-Xorazmiy (789-850), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va boshqalarning “Geometriya”, “Geodeziya”, “Astronomiya” kabi asallarida keltirilgan.

Temuriy davrida Movarounnahr xududida muxtasham binolar, masjid va madrasalar qad ko`tardi. Barpo etilgan binolar albatta, aniq chizmalar asosida ko`rilgan. Chizmalar esa maxsus chizmachilik asboblari vosetasida bajarilganligi haqida ko`pgina ma`lumotlar bor.

Bunga misol qilib Samarqand, Buxoro, Xorazim va Respublikamizning boshqa qator shaharlaridagi qadimiy obidalarini misol qilish mumkin. ularning maxobatli qilib qo`rilganligi va ularga har – xil naqishlar bilan ishlov berilganini uziyoq o`sha davrda chizmalarga juda katta etibor qaratilganligidan dalolat beradi.

Kiyinchalik ham respublikamizda chizmachilik fanlariga bulga ehtiyoj yanada kuchayib bordi va bu borada birinchilardan bulib R.Xorunov professorlik unvonini va O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi unvonini qulga kiritdi.

Shu bilan bir qatorda taniqli olim Yusuf Qirg`izboyev Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat institutida kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritgan. U birinchi bor o`zbek tilida mexanika ixtisosliklari uchun «chizma geometriya» darsligini chop etdi. Kitobda tasvirlash usullari ishlatiladigan o`zbekcha atamalar tizimi yaratildi. Yusuf Qirg`izboyevga dotsentlik unvoni berildi. Yu.Qirg`izboyev, E.Sobirov, L.Hakimov va I.Raximovlar muallifligida «Mashinasozlik chizmachiligi kursi» chop etildi. Bu o`zbek tilida yaratilgan birinch adabiyot bo`lib, unda nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda chizmachilik atamalar ishlab chiqildi.

Respublikamiz pedagoglaridan Sh.K.Murodov Buxoro va Samarqand oliy

o`quv yurtlarida ma`ruzalar o`qishi, undan keyingi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Chimkent va Jambul shaharlarga tashrif buyurib, ilmiy simenarlar o`tkazishi hamda izlanuvchi va aspirantlar tanlab olinishi O`zbekiston va qo`shni respublikalarda fanning rivojlanishiga turtki bo`ldi.

Respublikamiz mustaqilikni qulga kiritga dardan boshlab hozirgi kunga qadar har sohada Jadal rivojlanmoqda. shaharlarimiz va qishloqlarimi tanib bulmas darajada o`zgarmoqda. bunday bunyotkorlik islrini amalgam oshirishda chizmachilik fanlarining ahamiyati juda katta. demak insoniyat rivojlanishda davom etar ekan chizmachilik fanlari ham uz-uzidan rivojlanib takomillashb boraviradi.

II-BOB. AKSONOMETRIK PROEKSIYALAR YASASH, SHAKILLARINING AKSONOMETRIK PROEKSIYALARINI YASASH METODI

O`quvchilar buyumning chizmasini to`g`ri burchakli proeksiyalar sistemasida hosil qilish usulini o`rganish protsessida bu usul, bilan hosil qilingan chizma buyumning shakli va o`lchamlari haqida to`liq tasavvur berishini o`zlashtirishlari kerak. Biroq bu tasvir ko`rsatmalilikdan mahrumdir. O`qituvchi tasvirlanayotgan figuraning holatini proeksiya tekisligiga nisbatan tanlash va proeksiyalovchi nurlar yo`nalishi bilan ko`rsatmalilikka erishish mumkinligini tushuntiradi. O`qituvchiga chizma geometriya kursidan ma'lumki, buyumning yaqqol tasvirini hosil qilish usuli aksonometriya deyiladi. Ammo bunday ta`rifini o`quvchilarga aytish yaramaydi, chunki ular hali uni to`g`ri tushunishga tayyorlangan emaslar. Markaziy proeksiyalashdan farqli bo`lgan parallel proeksiyalar metodidan foydalanish, bu metodning mohiyatini tushunarli qilib o`quvchilarga aytib berish hamda uning yassi va fazoviy shakllarning yaqqol tasvirlarini yasashda amaliy qo`llanilishini ko`rsatishda o`qituvchiga imkoniyat beradi. Yaqqol tasvirlar o`quvchilarga berilgan ikkita proeksiya bo`yicha shakilning uchinchi proeksiyasini yasashga doir masalalarni ancha engil ravishda yechishga yordam beradigan bog`lovchi zvenodir.


Maktab amaliyatida aksonometrik proektsiyalarning faqat ikki ko`rinishi frontal qiyshiq burchakli dimetrik (xona) proeksiya va to`g`ri burchakli izometrik proeksiya o`rganiladi. Aksonometriyaning ikkala ko`rinishi ham buyumning parallel nurlar dastasi yordamida aksonometriya tekisligi Deb ataluvchi biror proeksiya tekisligiga proektsiyalash yo`li bilan xosil etiladi. Aksonometrik proeksiyalarni yasashda o`quvchilarga parallel proeksiyalarning qo`yidagi xossalarni aytish yetarli:

- a) parallel kesmalar proeksiyalar o`zaro parallel bo`ladi;
- b) bir to`g`ri chiziqda yoki parallel to`g`ri chiziqlarda joylashgan kesmalarining proeksiyalari nisbati proektsiyalashda saqlanadi;
- v) aylananing parallel proeksiyasi umumiy holda ellips bo`ladi. Biroq

xususiy holda aylana aksonometrik proeksiya tekisligiga to'g'ri chiziq kesmasi yoki aylana ko'rinishida proeksiy aylanishi mumkin.

Aksonometriyada buyum tasvirini yasashni tushuntirishni xona proektsiyadan boshlash kerak, chunki tasvirlashning bu ko'rinishi o'quvchilar uchun ancha tushunarli. Amalda u perspektivadagi buyum rasmdan shu bilan farq qiladiki, bunday tasvirlashda ichkari kirib boruvchi parallel to'g'ri chiziqlar perspektivadagi kabi bir nuqtaga uchrashmay, parallelligicha qolaveradi. Tushuntirish vaqtida quyidagidek qisqacha qilib bayon etish bilan chegaralanish tavsiya etilmaydi. Agar buyumga oldidan, bir oz yon tomonidan va ustidan qaralsa, tekislikda xona proeksiyasi hosil bo'lishi mumkin» Bunday tushuntirish o'quvchularga chizmachilik kursining shunday muhim bo'limini rasman o'zlashtirishdan boshqa hech nima bermasli giga to'liq ishonish mumkin.

Aksonometrik tasvirlar hosil etish usulini tushuntirish uchun ko'rsatmalilik vositalaridan: plakatlar, dinamik modellar, proeksion apparat va boshqalardan keng foydalanish lozim. Agar sinf xonasini yoki chizmachilik xonasini qorong'ilashtirish usullari bilan jihozlash imkoniyati bo'lsa, u vaqtda kubning simdan yasalgan modeli va diapozitivlar namoyish qilishda qo'llaniladigan oddiy maktab proeksion fonaridan iborat moslamadan (1-shakl) foydalanish mumkin.




1-shakl

Kubning modeliga fonar ob'ektividan chiqadigan yorug'lik nurlari dastasi yo'nalishinio'zgartirib, ekranda (yoki odatdagi chizma qog'ozi listida) kubning to'g'ri burchaklidan to qiyshiq burchakligacha bo'lgan turli proeksiyalarini hosil

etish mumkin. Kubning xona proektsiyasini hosil qilishni namoyish qilish uchun foydalaniladigan sistemadagi model diqqatga sazovordir. 1-shaklda ushbu modeli yordamida kubning xona proektsiyasini hosil qilish ketmaketligi ko`rsatilgan. Modelning tuzilishi va ishlash prinsipi avtor tomonidan uning kitobida bayon qilingan

Xona proektsiyada fanning tasviri qanday hosil bo`lishini model yordamida ko`rsatgandan so`ng, o`quv plakatini (1 -shakl) qarab chiqishga kirishish maqsadga muvofiqdir. Chapdan yuqoridagi tasvir bo`yicha o`qituvchi, o`quvchilar oldindan rasm darslarida tanishgan, fanni markaziy proektsiyada (perspektivada) tasvirlash usuli bilan texnik fanni chizmachilikda qo`llaniladigan xona proektsiyada tasvirlash usuli orasidagi asosiy farqlarni aytib beradi. Bu plakagda kubning ikki yog`i (old va orqa) frontal ravishda joylashgan xolda ko`rsatilgan. Bu erda o`quvchilarga tekislikning (bu holda kubning yog`i) frontal holati haqida tushuncha berish va uni mos model yordamida ko`rsatish muhimdir.




2-shakl

O`qituvchi o`quvchilarning diqqatini kubning frontal joylashgan yoqlarining shakli va o`lchamlari o`zgarmasdan proektsiyalanishiga jalb qiladi. Demak, berilgan misolda .kubning oldingi yog`i kvadrat ko`rinishida tasvirlangan bo`lib,. uning tomonlari kubning qirralariga teng. Xuddi shuning o`zi kubning orqa yog`iga ham tegishli. kubning frontal joylashmagan qolgan yoqlari shakli va o`lchamlari o`zgargan holda proektsiyalanadi. Kurilayotgan misolda kubning kvadratdan iborat ustki va chap yon yoqlari (bu kubning boshqa ko`rinmaydigan, pastki va o`ng yon yoqlariga ham tegishli) parallelogramm shaklida tasvirlangan bo`lib, ularning ichkari kiruvchi tomonlari kub qirrasining natural kattaligining yarmiga teng holda va gorizontaal chiziqqa nisbatan 45° (135°) burchak ostida

og`gan holda tasvirlangan.


Shundan so`ng o`qituvchi, yuqoridan o`ngdagi chizmani ko`rib chiqishda, kubning xona proektsiyasini yasashda. bitta O nuqtadan chiquvchi aksonometrik proektsiya o`qlaridan foydalanilishini tushuntiradi. Uqlarning biri ( $x$ ) gorizontal, ikkinchisi ( $z$ ) vertikal, uchinchisi ( $y$ ) esa xo`qig`a nisbatan  $45^\circ$  ( $135^\circ$ ) burchak ostida yo`nalgan. O`qituvchi buyumlarni xona proektsiyada va  $x$  o`qlarida va ularga paralel ravishda chizayotganda kesmalarni o`z kattaligicha,  $y$  o`qi va unga paralel ravishda chizayotganda esa, ikki marta kichik qilib qo`yish kerakligini ta`kidlaydi.

Texnik rasm chizish aksonometriya o`qlarini yasashdan boshlanishini esda tutish lozim. Shuning uchun texnik rasm solishni o`rganishning birinchi etapidayoq o`quvchilarga aksonometrik o`qlarni tez va aniq chizishga o`rgatish maqsadga muvofiqdir. Agar, masalan, biror buyumning texnik rasmini izometriyada katakli qog`ozda bajarish mo`ljallangan bo`lsa, u vaqtda o`quvchilarga belgilangan  $O$  markazdan (koordinata o`qlarining boshi, 2-shakl) vertikal to`g`ri chiziq o`tkazib, uni o`qi deb olishni tavsiya etish mumkin. O nuqtadan chapga va o`ngga besh katak, keyin esa pastga uch katak siljib nuqtalar belgilansin. Shunday qilib olingan ikki nuqtadan va  $O$  markaz orqali to`g`ri chiziqlar o`tkaziladi, ular izometrik proeksiyaning x va y o`qlari bo`ladi. Xona proeksiya o`qla`ri 2-shaklda ko`rsatilganidek yasaladi.



3-shakl


Aksoiometrik (xona yoki yazometrik) proektsiyani buyumning tasviri yaqqolroq hosil bo`ladigan qilib tanlash kerak. 3-shaklda bir detalning texnik rasmlari misollari keltirilgan bo`lib, bulardan ayniqsa izometrik proektsiya bu holda yaqqolroq ekanligi k o`rinib turibdi.



3-shakl

O`quvchilar aksonometriya o`qlarini qo`lda chizish usullarini o`zlashtirganlaridan keyin, 3-shakl bo`yicha oddiy texnik detalni asliga qarab texnik rasmini chizishni mashq qilishga kirishish mumkin. O`qituvchi birinchi darsning boshida namoyish plakati yordamida hamma o`quvchilar uchun umumiy tushuntirish o`tkazishi kerak. O`quvchilar plakatta tasvirlangan modelning texnik rasmini bajarishning asosiy usullarini o`zlashtirish bilan birga uni tuzishning metodik ketma-ketligini ham aniqlab olishlari muhimdir. O`quvchilar bilan plakadni (3-shakl) qarab chiqib, unda tasvirlangan detalning asosiy formalarini va proporsiyalarini aniqlab chiqqandan keyin, o`qituvchi sinf doskasida texnik rasmni taxminan qo`yidagi ketma-ketlikka rioya qilgan holda bajarishga kirishadi (4-shakl):

- a) izometriya o`qlarini yasaydi;
- b) izometriya o`qlariga nisbatan buyumning holatini, rasmda buyumning shakli eng yaqqol holda bo`ladigan qilib, belgilaydi;
- v) buyumning gabarit o`lchamlarini umuman aniqlaydi va gabarit to`g`ri burchakli parallelepiped yasaydi;
- g) yasalgan parallelepipedni buyumning alohida qismlarini o`z ichiga olgan elementar geometrik qismlarga bo`ladi va ularni rasmda tasvirlaydi;
- d) tasvirni tekshiradi, ba`zi aniqliklar va tuzatishlar kiritadi;




4-shakl

e) keraksiz boʻlgan chiziqlarni oʻchiradi va tasvir konturlari ustidan chizib chiqadi.


Texnik rasmni yasash ketmaketligini qisqa analiz qilgandan keyin har bir oʻquvchiga shakli boʻyicha uncha murakkab boʻlmagan texnik detal modelini berish va asliga qarab texnik rasmini bajarishni buyurish lozim, bu dars uchun shakllari oddiy boʻlgan modellarni tanlash zarur, chunki murakkab buyumlar rasmini bolalar bajara olmasliklari mumkin. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bu materialni ishlab chiqish uchun oʻquv dasturida juda kam vaqt ajratilgan. Ish prosessida oʻqituvchi oʻquvchining gavdasi va qoʻlini toʻgʻri holda boʻlishini kuzatishi, shuningdek tasvirlarni bajarish ketmaketligiga va uni qogʻozda qanday holatda joylashishiga, ishning batamom tugallanishiga ahamiyat beradi.

Belgilab oʻtganimizdek, oʻquvchilarning juda keng tarqalgan xatolari izometriyada aylanani notoʻgʻri tasvirlashlari hisoblanadi (5-shaklga qarang). Bu xatoning oldini olish uchun oʻquv plakatida (5-shakl) keltirilgan yasashni koʻzdan kechirish zarur, bu erda ellipslarning proeksiya tekisliklariga nisbatan holati yetarli darjada aniq koʻrsatilgan.



5-shakl

Rasmga ko'p roq aniqlik berish uchun tasvirlanayotgan buyumning yoritilgan va soyada qolgan qismlarini shtrixovka yordamida ajratish zarur. Shu maqsadda o'qituvchi buyumning formasini aniqlash uchun texnik rasm solishda qabul qilingan usullar bilan o'quvchilarni puxta tanishtirishi kerak. Har xil sirtlarda shtrixovka qilish usullarini tushuntirishni bevosita sinf doskasida, o'quv plakatlaridan foydalanib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Biroq, faqat o'quv plakati (6-shakl) bo'yicha berilgan ko'rsatmalar bilan ham chegaralanish mumkin.




6-shakl

Shtrixlash usullarini tushuntirayotganda, texnik rasmda shtrixlarning yo'nalishi, ularning uzunligi va yo'g'onligi hamda shtrixlar orasidagi masofa

tasvirlanayotgan buyumning formasiga bog'liqligini ta'kidlab o'tish kerak. Mana masalan, yassi yoqli jismlarda shtrixlarning yo'nalishi, odatda, aksonometriya o'qlari yo'nalishiga mos keladi. Silindrik va Konik shakldagi buyumlarni tasvirlashda shtrixlarni, bu sirtlarni yasovchilarning yo'nalishi bo'yicha o'tkazish maqsadga muvofiq. Buyumlarning yumaloqligi va yoritilganligi shtrixlarning mos yo'nalishi va zichligi bilan aniqlanadi. Ayrim, hollarda shtrixlar orasidagi masobuyumi faqat kamaytirish emas, balki shtrix chiziqlar yug'onligini oshirish ham mumkin.


Texnik rasm solishdagi shtrixlash, qirqim va kesimda turli materiallarni shartli tasvirlash qabul qilingan shtrixlashga hech o'xshamasligini ham ta'kidlab o'tish zarur. Ba'zan texnik rasmni bajarishda shrafirovka deb ataluvchi krestsimon shtrixlashga murojaat qiladilar (6-shakl). Ko'pincha buyumning formasini aniqlash maqsadida quyish (shakl) va tush berish (shakl) texnikasiga murojaat qiladilar.



7-shakl

O'qituvchi qirqmaga ega bo'lgan yaqqol tasvirlarni bajarishda qabul qilingan qoidalarni hisobga olishi kerak. Formasi bo'yicha oddiy bo'lgan detalda, detalning texnik rasmini qirqma bilan bajarishni o'quvchilarga ko'rsatiladi. Qirqma yordamida buyumning ichki ko'rinishi aniqlanadi (7-shakl). Shuning bilan birga ta'kidlab o'tish zarurki, aksonometrik proektsiyadagi qirqma to'g'ri burchakli proektsiyalardagi qirqim bilan hech

qanday aloqada bo'lmagan alohida qoidalar bo'yicha yasaladi. 8-shaklda texnik detalning chizmasi uch proektsiyada berilgan bo'lib, unda ko'rinishlar mes ravishda frontal va profil proektsiyalar bilan birlashtirib chizilgan. Chizmadan k o`rinib turibdiki, frontal va profil qirqimlar frontal va profil tekisliklarni qo`llanish natijasida hosil qilingan. Texnik rasmda (8-shakl) aksonometrik qirqim ikkita o`zaro kesishuvchi tekisliklar yorda`mida hosil qilingan.



8-shakl

2.1 Aksonometriya haqida umumiy ma'lumot.

Chizmachilik amaliyotida bajarilgan chizmalarda narsaning ko`rinishi alohida-alohida ikkita, uchta yoki undan ortiq» chizmani o`qitishi va narsani fikran tasavvur qiyinlashadi. Ana shu qiyinchilikni maqsadida, ko`rinishlaridan tashqari, uning aksonometrik proyeksiyasini yasashga to`g`ri keladi.

Narsa (detal, jism va hokazo) yoki geometrik element (nuqta to`g`ri chiziq va hokazo)larning aksonometrik proyeksiyasi quyidagicha hosil qilinadi

Narsa o`zaro perpendikulyar bo`lgan uchta koordinata tekisligi sistemasiga joylashtiriladi va koordinata o`qlari bilan birgalikda yangi tanlab olingan proyeksiya tekisligiga, biror yo`nalish bo`yicha parallel proyeksiyalanadi. Hosil bo`lgan tasvirga proyeksiya, qisqacha aksonometriya deyiladi.

Aksonometriya grekcha so`z bo`lib, «axop»- o`q, “metreo” o`lchayman, ya`ni “o`qlar bo`yicha o`lchash” degan ma`noni anglatadi.

Endi aksonometrik proyeksiya hosil qilishni A nuqtaning aksonometrik proyeksiyasini yasash misolida bayon etamiz. Buning uchun- OXYZ koordinata sistemasida joylashgan. A(a) nuqtani koordinata o`qlari bilan birgalikda biror P tekislikka S yo`nalish bo`yicha parallel proyeksiyalaymiz va natijada aksonometrik proyeksiya hosil bo`ladi (1-shaki), Bunda P-aksonometriya tekisligi, $O_P X_P / O_P Y_P$ va $O_P Z_P$ -aksonometriya o`qlari,  $O_P$ - aksonometriya o`qlarning boshi». AP nuqta A nuqtaning aksonometrik proyeksiyasi ap-A nuqtaning ikkilamchi proyeksiyasi deb ataladi.

Aksonometrik proyeksiya, proyeksiyalash yo`nalishiga ko`ra qiyshiq va to`g`ri burchakli bo`ladi. Proyeksiyalash yo`nalishi proyeksiyalar tekisligi bilan o`tkir burchak tashkil qilsa, qiyshiq burchakli, proyeksiyalar tekisligiga perpendikulyar bo`lsa, to`g`ri burchakli aksonometrik proyeksiya hosil bo`ladi.

Endi to`g`ri burchakli aksonometrik proyeksiya haqida to`xtalamiz. Fazodagi koordinata o`qlari (OX, OY, OZ) *boyicha e* kesma berilgan deb faraz qilaylik (e-natural masshtab).

Proyeksiya yo`nalishi koordinata tekisliklaridan hech biriga parallel bo`lmasa, e kesma aksonometrik tekislikka, p muman bir-biriga teng bo`lmagan ex, ey, ez kesmalar tarzida proyeksiyalanadi. Bu ex, ey, ez kesmalar deb ataladi

($e_x < 1$, $e_y < 1$, $e_z < 1$). Bularning natural e masshtabga nisbatlari aksonometrik o`qlar bo`yicha o`zgarish (qisqarish) koeffitsientlari deyiladi. O`zgarish -koeffitsientlarini $O_p X_p$ o`q bo`yicha m, $O_p Y_p$ o`q bo`yicha n va $O_p Z_p$ o`q bo`yicha k deb belgilaymiz,

Uch qismdan iborat $O_a X_a A_a$ Fazoviy siniq chiziq aksonometrik tekislikka tekis-siniq chiziq ($O_p a x_p a_p A_p$) ko`rinishida proeksiyalanadi. A_p nuqta A nuqtaning aksonometriyasidir.

Fazoviy siniq chiziqning har bir bo`lagi nuqtaning to`g`ri burchakli koordinatalaridan birini belgilaydi ( $Oax=x$ ,  $axa=y$ ,  $aA \sim z$ ) P tekislikdagi tekis siniq chiziqning kesmalari esa o`sha nuqtaning aksonometrik-koordinatalarini belgilaydi: $X_p = O_p a x_p$; $Y_p = a x_p a_p$; $Z_p = a_p A_p$.

Agar aksonometrik o`qlar ( $O_p X_p$ ,  $O_p Y_p$ ,  $O_p Z_p$ ) va o`qlar bo`yicha o`zgarish koeffitsientlari (m, n, k) berilgan bo`lsa, nuqtaning ortogonal proyeksiyalari yoki koordinatalari bo`yicha uning aksonometrik proyeksiyasini yasash mumkin.

4.1-shaklda fazodagi 0 nuqtadan chiqqan OX, OY, OZ nurlar bir-biriga perpendikulyar ($\angle XOY = \angle YOZ = \angle ZOX = 90^\circ$) va ular ustida belgilab olingan $Q E_i$, $O E_a$, $O E_a$ kesmalar o`zaro teng ( $O E_i = O E_2 = O E_3 = e$ ) bo`lsin.

Fazodagi 0 nuqtadan chiqqan o`zaro perpendikulyar nurlarni P tekislikka parallel proyeksiyalasak, P tekislikda  $O_p$  nuqtadan chiqqan uchta  $O_p X_p$ ,  $O_p Y_p$ ,  $O_p Z_p$  nurlar hosil bo`ladi Bular aksonometriya o`qlari bo`ladi. O`qlardagi natural masshtab e ning proyeksiyalari:  $e_x$ ,  $e_y$  va  $e_z$ , larning uzunligi har xil bo`ladi.

Demak, tekislikda bir nuqtadan chiqqan har qanday uchta nurlarni kesmani bir-biriga perpendikulyar bo`lgan, o`zaro teng kesmalarning parallel proyeksiyalari deb qabul qilish mumkin (K.Polke teoremasi).

Bu teoremani birinchi bo`lib nemis geometri K.Polke isbotini bergan, keyinchalik uning shogirdi G.Shvarts umumlashtirgan.

Bu teoremadan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: tekislikda bir chiqqan har qanday uchta to`g`ri chiziq o`qlar sifatida va olingan uchta ixtiyoriy uzunlikdagi kesmalar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Shunday qilib, bu teoremaga binoan aksonometriya o`qlari orasidagi burchaklar va ular bo'yicha o'zgarish ko'effitsentlarini, ixtiyoriy olish mumkin ekan.

Ammo aksonometriya o`qlari orasidagi burchaklar va ular bo'yicha o'zgarish ko'effitsentlari ixtiyoriy olingan taqdirda hosil bo'lgan aksonometrik tasvir buyumning tabiiy ko'rinishiga butunlay o'xshashlay qolishi yoki juda o'z o'xshashi mumkin. Shuning uchun ham yasalgan buyumning tabiiy ko'rinishiga mumkin qadar ko'proq o'xshash bolishi va aksonometriyani osonroq yasash maqsadida, amalda aksonometriyaning ba'zi xususiy turlarigina qo'llaniladi.

2.2 aksonometrik proeksiyalash turlari.

Chizma geometriya kursidan ma'lumki: To'g'ri burchakli o'zgarish koyffitsentlari yig'indisi ya'ni $m^2 + n^2 + k^2 = 2$ (1).

Bunda m^k - aksonometriya o'qlari bo'yicha o'zgarish koyeffitsentlari, bu teoremaga asosan, to'g'ri burchakli aksonometriyada o'zgarish koefitsentlaridan ikkitasi berilgan bo'lsa, uchunchisi (1) formuladan topiladi. Lekin, berilgan ikkita o'zgarish koefitsentlari kvadratlarining yig'indisi birdan ortiq, ikkidan kam bo'lishi kerak, aks holda teorema sharti qondirilmaydi.

Aksonometrik proyeksiya o'qlar bo'yicha o'zgarish koefitsentlariga ko'ra to'g'ri burchakli va bolinadi.

4.3-§. To'g'ri burchakli izometriya

(1) formulada $m=n=k$ bo'lsa, bunday to'g'ri burchakli aksonometrik proyeksiyaga izometrik proyeksiya yoki qisqacha izometriya deyiladi. Demak, aksonometrik tekislik hamma vaqt OX, OY, OZ o'qlarga nisbatan bir xilda qiya bo'ladi, Shunga ko'ra izometriyada o'qlar orasidagi burchaklar bir-biriga teng bo'ladi (4.2-shakl), ya'ni $\angle XO_pY = \angle XO_pZ = \angle YO_pZ = 120^\circ$ o'qlar bo'yicha o'zgarish koefitsentlarining qiymati (1) formuladan topiladi:

$$m^2 + n^2 + k^2 = 2 \quad \text{yoki} \quad 3k^2 = 2, \text{ bundan} \quad m=n=k = \pm \sqrt{\frac{2}{3}} = 0.8163 = 0.82$$

Demak, to'g'ri burchakli izometriyada X_p , Y_p , Z_p o'qlarga yoki ularga parallel bo'lgan to'g'richiziq bo'yicha qo'yiladigan o'lchamlar bir xilda, ya'ni 0,82 ga o'zgarar ekan.


Berilgan o'zgarish koyffitsentlari bo'yicha bir nuqtaning aksonometrivasini yasashda bir muncha hisoblashga to'g'ri keladi. Holbuki amalda murakkab detallarning proyeksiyalari yoki koordinatalari bo'yicha. izometriyasini yasashga to'g'ri keladi. Bunday hisoblashlarni kamaytirish maqsadida izometriyada $m=n=k=0,82$ o'rniga, $m=n=k=1$ deb olinadi. Bunday izometriya keltirilgan (standart) o'zgarish koyffitsentli izometriya deyiladi. Standart izometriyada tasvir taxminan $1/0.82=1.22$ marta kattalashadi.

Aylananing to'g'ri burchakli izometriyasi H, V, W proyeksiya tekisliklar va parallel tekislikdagi aylanalarning izometriyalari ya'ni ellipslarning katta o'qi 1, 22 d, kichik o'qi 0,71 d ga bo'ladi (d-berilgan aylana diametri).


4.3-shakl a da va «kichik o'qlari ellips o'qida oval chizish ko'rsatilgan.

Oval chizish uchun bir-biriga perpendikulyar bo'lgan o'q chiziqlarning kesishish nuqtasi O aniqlangan va uni markaz deb GA-d/2 va , -OC=d/2 radiusli aylanalar chizilgan hamda aylanalarning AB va CD o'qlar bilan kesishgan-nuqtalari 1 va 2; 3 va 4 lar topilgan. Topilgan nuqtalar orqali mos ravishda 13, 14 va 23, 24 to'g'ri chiziqlar o'tkazib, yoularining tutashuv nuqtalari F, E va M, N lar topilgan markazlari 1 va 2 nuqtalarda bo'lgan R radiusli FCE va MDN yoylar, markazlari 3 va 4 nuqtalarda bo'lgan r radiusli va yoylar chizib, Oval hosil qilingan.


4.3-shakl, b da diametrlari o'z'aro va H, V, U proyeksiya tekisliklariga parallel aylanalarning izometriyalari shaklda H tekislikka parallel joylashgan aylana izometriya-ellipsning kichik o'qi $O_p Z_p$ ustida V ga parallel joylashgan aylana izometriyasi-ellipsning kichik o'qi $O_p Y_p$ ustida, U ga parallel joylashgan aylana izometriyasi-ellipsning kichik o'qi $O_p X_p$ ustida joylashadi.




1-shakl



2-shakl



3-shakl



4-shakl

4.4-§. To`g`ri burchakli dimetriya

(1) Formulada o`zgarish koeffitsentlaridan ikkitasi o`zaro teng, uchinchisi- ularga teng emas, ya`ni  $m=k=n$ . Bunday to`g`ri burchakli aksonometriyaga dimetriya deyiladi. Unda (1) formula qo`yidagi ko`rinishga ega bo`ladi

$$2m^2+n^2=2$$

Bu ikki nomalumli bitta kvadrat tenglama son-sanoqsiz echimga ega. Demak, to`g`ri burchakli dimetriyalar ham son - sanoqsiz bo`ladi. Shuning uchun amalda to`g`ri burchakli dimetriyalardan faqat o`zgarish koeffitsentlari $m=k=2n$ bo`lgan dimetriyadan foydalaniladi. Bunday dimetriya uchun (1) formulaga ko`ra o`qlar bo`yicha o`zgarish koeffitsentlari qo`yidagicha hisoblab topiladi:

$$2mI + 1/4m^2 = 2, 9mI = 8, m = 8/9 = 0,9428 = 0,94$$

